

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

2-son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Kurbanov Eldar Ermamatovich, Qormishov Mirjalol Jumamurod o'g'li</i> O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY MADANIY MARKAZLARINING INSTITUTSIONAL ROLI VA VAZIFASI (Sirdaryo viloyati markazlari misolida)	11-15
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> SOPOLLI-KO'ZALI ARXEOLGIK QATLAMLARIDA SHIMOLIY DASHT QABILALARINING IZLARI	16-19
<i>Акбарова Камила Шухрат кизи</i> МЕЖДУ СЕКУЛЯРИЗАЦИЙ И МОДЕРНИЗАЦИЕЙ: СОВЕТСКАЯ ПОЛИТИКА В СФЕРЕ РЕЛИГИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	20-26
<i>Olimov Islombek Ulug'bek o'g'li</i> SUV TA'MINOTI TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	27-31
<i>Sitorabonu Bobojonova</i> BUXORODA DASTLABKI MUZEYNING TASHKIL TOPISHI.....	32-36
<i>O'ralov Orzubek</i> GEOGRAFIK KASHFIYOTLARGA QADAR POLINEZIYA XALQLARINING RIVOJLANISHI VA DAVLATCHILIK INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI TARIXI.....	37-45
<i>Qahhorov Shohjaxon Shodiyor o'g'li</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING TARIXIY VA MA'NAVIY TAHLILI.....	46-50

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Madartov Bahrom</i> TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA O'ZARO MUNOSABATLARNI HISOBGA OLISH ASOSIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	51-55
<i>Xudayberdiyev Otabek Absalomovich</i> XALQARO SAVDO MUNOSABATLARIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TA'MINOT ZANJIRI VA LOGISTIKA KONTROLLINGINING ROLI	56-64
<i>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</i> O'ZBEKISTONDA INFLYATSION BOSIM OMILLARI VA ULARNING ISTE'MOL NARXLARI INDEKSIDA NAMOYON BO'LISHI.....	65-75
<i>Usmonov Maxsud Tulqin o'g'li</i> XIZMAT KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARNING RAQOBATBARDOSHLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR TIZIMINI ANIQLASH VA XIZMAT SIFATI QIYMAT TAKLIFI MIJOZ TAJRIBASI BREND KAPITALI HAMDA TEZKORLIK INDIKATORLARI ASOSIDA BAHOLASH	76-87

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Alimatova Nargis Abduxalilovna</i> INSON ONGINING TABIATINI O'RGANISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	88-93
--	-------

<i>Utegenova Jamila Djolmurzayevna</i> O'ZBEKISTONDA BIOETIKANING SHAKLLANISHI VA FALSAFIY ASOSLARI	94-97
<i>Mamatqulov Rashid Pazilbekovich</i> JAMIYAT YUKSALISHIDA IJTIMOY NAZORATNING ROLI.....	98-102
<i>Shadimetov Mahmudjon Negmatjanovich</i> RUHIY KAMOLOT TUSHUNCHASINING FALSAFIY MAZMUNI VA TARIXIY ILDIZLARI .	103-108
<i>Ochilov Jamshid Abdurashidovich</i> KOSMOGEN, TEXNOGEN, ANTROPOGEN SIVILIZATSIYALAR MOHIYATINING ONTOLOGIK TALQINI	109-117
<i>Beshimov Xamidjon Sayidovich</i> KASABA UYUSHMALARI TIZIMIDA INSON QADRINI YUKSALTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	118-126
<i>Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna</i> ABU RAYHON BERUNIY ASARLARIDA FANLARNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI MASALALARI	127-130
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Axmedov Oybek Saporbayevich</i> INGLIZ TILIDAGI SOLIQ-BOJXONA TERMINOLOGIK BIRLIKLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING STILISTIK MUAMMOLARI.....	131-139
<i>Babadjanova Nazokat</i> OGAHYNING SO'Z VA NUTQ MASALALARIGA OID QARASHLARINING MA'RIFIY MANBALARI	140-148
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich, Tog'ayeva Shoxnoza Elmurod qizi</i> ADABIYOTIDA "ABSURD" TUSHUNCHASI	149-153
<i>Abdullayeva Rahima Raimqul qizi</i> MEDIA YORDAMIDA IMIDJNING SHAKLLANISHI VA IJTIMOY FIKR	154-161
<i>Fozilov Arabjon Nozimjon o'g'li</i> CHET TILLARINI O'RGANISHDA SO'Z YODLASHNING AHAMIYATI	162-165
<i>Sarvinov Abdiraxmonova Davron qizi, Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna</i> THE SIGNIFICANCE OF STUDYING GENDER REPRESENTATION IN IDIOMS AND PHRASEOLOGICAL UNITS.....	166-171
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> TAVALLO IJODIDA POETIK OBRAZ YANGILANISHINING IJTIMOY-TARIXIY VA ADABIY- ESTETIK OMILLARI.....	172-185
<i>Кодирова Зарина Баходировна</i> ХУДОЖЕСТВЕННОЕ СВОЕОБРАЗИЕ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ ДЭВИДА УОЛЛЬЯМСА: «DEMON DENTIST», «THE FING», «GANGSTA GRANNY».....	186-191
<i>Ismatilloev Jobir</i> "FIRDAVS UL-IQBOL"DAGI QASIDALARDA HUKMDORLAR MADHI	192-197
<i>Bozorova Nasiba</i> O'LMAS UMARBEOVNING "YOZ YOMG'IRI" QISSASIDA JINOYATNI O'RGANISHDA RETROSPEKSIYA USULI	198-203

<i>Ганиева Зухра Муратбаевна</i> ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СМЕРТЬ» В РУССКОМ ЯЗЫКЕ: КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ	204-212
--	---------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich, Ro'ziboyev Asilbek</i> SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	213-218
<i>Bazarova Dildora Baxodirovna</i> ODIL SUDLOVNI TA'MINLASHDA "RAQAMLI SUD"	219-226
<i>Бабаев Джасхонгир Исмаилбекович</i> КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОГОВОРА ПИТЬЕВОГО ВОДОСНАБЖЕНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА	227-229
<i>Азходжаева Роза Алтыновна</i> РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ СИСТЕМЫ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ.....	230-235
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА В ДЕЛАХ О КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ СБОРА, ФИКСАЦИИ И ПРАВОВОЙ ОЦЕНКИ	236-246
<i>Alijanov Ilhomjon Erkinjon o'g'li</i> PROKURATURA ORGANLARIGA QABUL QILISHDA NOMZODLARGA QO'YILGAN TALABLAR, XIZMATGA QABUL QILISH VA YOSH MUTAXASSISLAR BILAN ISHLASHGA DOIR FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	247-253
<i>Sarsenbaeva Aynura Tenelbay qizi, Tanirbergenov Sultanbek Bazarbaevich</i> FUQAROLARNING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ VA ERKINLIKLARIGA QARSHI JINOYATLAR HUQUQIY MOHIYATI.....	254-258
<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING TARKIBIY QISMI	259-265
<i>Usmonaliyev Muslimbek Qurvonaliyevich</i> SPORTCHILARNI VAQTINCHALIK IJARAGA Olish SHARTNOMASINING SPORT HUQUQIDAGI O'RNI	266-272
<i>Mamadaliyev Boburjon Bahodirjon o'g'li</i> MAHALLIY BUDJETNI TARTIBGA SOLISHDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI IJRO ORGANLARINING VAZIFALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	273-278
<i>Umarova Xolisxon Nomoz qizi</i> KORPORATSIYA DIREKTORLARINING FUNKSIONAL VAZIFALARINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ JAVOBGARLIGI CHEGARASI	279-286
<i>Yaqubova Guli Qosimboy qizi</i> VOYAGA YETMAGANLAR BILAN BOG'LIQ ISHLARNI FUQAROLIK SUDLARIDA KO'RISHDA PROKURORNING ISHTIROKI TUSHUNCHASI VA UNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	287-294
<i>Ibrohimov Azimjon</i> XO'JALIK JAMIYATLARI BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMIDA IJRO ORGANI: ROSSIYA FEDERATSIYASI MISOLIDA	295-301

<i>Choriyeva Xupshidabonu Xuppam qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "VASIYLIK VA HOMIYLIK TO'G'RISIDA"GI QONUNINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	302-310
<i>Saidazimov Yusuf Sodiq o'g'li</i> MA'MURIY AKT. MA'MURIY AKTNING MAZMUN-MOHİYATI. GERMANIYA TAJRIBASI.....	311-316
<i>Tursunov Ilxomjon Salimovich</i> MUQADDAM SUDLANGAN SHAXSLAR TOMONIDAN SODIR ETILISHI MUMKIN BULGAN JINOIY HARAKATLARNI OLDINI OLIŞ VA MAXSUS PROFILAKTIKANI TAKOMILLASHTIRISH	317-321
<i>Xojanazarov Otabek Saydazimovich</i> OZODLIK DAN MAHRUM QILISH BILAN BOG'LIQ BO'LMAGAN JAZOLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA.....	322-329
<i>Raxmedov Xurshid Ashrapxodjayevich</i> JINOYAT ISHINI QO'ZG'ATISH INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA PROTSESSUAL AHAMIYATI	330-339
<i>Mansurova Xulkar Nabiyevna</i> FUQAROLIK PROTSESSINING TEZKORLIGINI TA'MINLASHDA SIRTDAN HAL QILUV QARORI CHIQRISHNING AHAMIYATI	340-349
<i>Begimova Nasiba Xudayberdievna</i> FARZANDLIKKA OLIŞ INSTITUTINING TADRIJIY RIVOJLANISHI	350-358
<i>Yo'ldoshbekov Anvar</i> NAQDSIZ HISOB-KITOB LAR VA RAQAMLI NAZORAT TIZIMLARINING HUQUQIY AHAMIYATI	359-367
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> EVRISTIK TA'LIM NAZARIYASIDA TA'LIM OLUVCHINING MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	368-372
<i>Shukurov Mirjalol Norpulatovich</i> YAKKAKURASHCHILARNI TEXNIK USULLARIGA O'RGATISHDA KLAS TER USLUBIDAN FOYDALAN HOLDA TAKOMILLASHTIRISH	373-377
<i>Tilyabayev Kamil Zaitjonovich</i> O'ZBEK TILINING O'RGANILISHI VA DEKOLONIZATSIYASIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR: (DE)KOLONIAL HIS-TUYG'ULAR, MILLAT VA O'Z-O'ZINI ANGLASH	378-383
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li</i> SHARQ MUTAFAKKIRLARNING FALSAFIY QARASHLARI ASOSIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA VALEOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM PEDAGOGIK OMILI SIFATIDA.....	384-388
<i>Xo'jamqulov Rasulbek Qurbon o'g'li</i> KOMPYUTER GRAFIKASI TEXNOLOGIYALARINI LOYIHA ASOSIDA O'QITISHGA INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	389-393
<i>Badalov Ulug'bek Xikmatovich</i> GEOGRAFIYA FANI DARSLARIDA ONLAYN GIS TIZIMLARIDAN FOYDALANISH.....	394-398

<i>Anvarjonova Nodirakhon Nasimbek qizi</i> IS EXPLICIT GRAMMAR INSTRUCTION STILL PEDAGOGICALLY JUSTIFIED? A CRITICAL RECONSIDERATION OF ITS ROLE IN CONTEMPORARY ENGLISH LANGUAGE EDUCATION.....	399-406
<i>Imomov Fozil Shakarbek o'g'li</i> TEMPERAMENT NAZARIYASI VA INDIVIDUAL PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR ASOSIDA GRAFIK FAOLIYATNI TASHKIL ETISH: PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA SAN'AT TERAPIYASI KONTEKSTIDA.....	407-412
<i>Курбанбаев Джавод Аминбаевич</i> КОГНИТИВНЫЕ И ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИЧЕСКИХ ГЛОССАРИЕВ В ЯЗЫКОВОМ ОБРАЗОВАНИИ	413-417
<i>Eshnazarova Farida Jo'raqulovna</i> JAMOADA LIDERLIK VA UNING SIFATLARI (SPORT JAMOALARI MISOLIDA).....	418-421
<i>Yuldasheva Muhayyo Alimbaevna</i> AVTOMOBILLARDA TASHISH VA HARAKAT XAVFSIZLIGINI TASHKIL ETISH FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TA'LIM VOSITALARINING O'RNI.....	422-429
<i>Umarov Komil, Sobirov Orif, Sultanov Rustam, Egamberdiyev Abdullo</i> YUQORI MALAKALI GANDBOLCHILAR MASHG'ULOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	430-435
<i>Doniyorova Gulnoza Anvar qizi, Kurbanova Gulnoz Negmatovna</i> INTERAKTIV VOSITALAR VA AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	436-441
<i>Nafasov Arslon Komilovich</i> PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI YO'NALISHIDA TARIX O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI.....	442-447
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna, Qalandarova Sevinch Aqiljon qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	448-453

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW**Received:** 15 January 2026**Accepted:** 2 February 2026**Published:** 14 February 2026*Article / Original Paper***THE PROBLEM OF BIAS IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE DECISIONS AND WAYS TO ELIMINATE IT****Hamrokulov Bahodir Mamasharifovich**Doctor of Law, Professor, University of
World Economy and Diplomacy**Ruziboev Asilbek**University of World Economy and Diplomacy
Postgraduate student in the International Business Law program

Abstract. This study explores how unfair outcomes emerge within artificial intelligence decision-making and investigates the underlying factors that contribute to such bias. Since AI models rely heavily on human-generated data, any distortions, stereotypes, or inaccuracies present in those datasets can be reproduced and amplified by the system. The article examines the roots of biased decisions, evaluates their consequences for individuals and society, and identifies practical approaches for reducing these risks. The proposed solutions include technical measures – such as refining datasets and applying fairness-oriented algorithms – as well as ethical strategies that involve strengthening transparency mechanisms and establishing oversight bodies. The results indicate that ensuring fairness in AI-based decisions requires not only technological improvements but also careful consideration of human involvement throughout the entire development process.

Keywords: artificial intelligence, fairness, bias, ethical issues, algorithmic justice.**SUN'IY INTELLEKT QARORLARIDA ADOLATSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI****Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
professori, y.f.d.**Ro'ziboyev Asilbek**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
"Xalqaro biznes huquq" magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt tizimlari qarorlarida uchraydigan adolatsizlik muammosi yoritilgan. Sun'iy intellekt algoritmlari ko'p hollarda insonlar tomonidan yaratilgan ma'lumotlarga asoslanadi. Shu sababli, ma'lumotlar to'plamidagi xolis bo'lmaganlik, stereotiplar yoki noto'g'ri tasniflar sun'iy intellekt qarorlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Maqolada qarorlarda adolatsizlikning asosiy sabablari, uning jamiyatga ta'siri hamda bu muammoni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, adolatli sun'iy intellekt tizimlarini yaratish uchun texnik ya'ni ma'lumotlarni tozalash, xolislik va adolatilik algoritmlari va axloqiy ya'ni etik qo'mitalar, shaffoflik echimlar taklif etiladi. Tahlillar shuni anglatadiki, sun'iy intellektning rivojlanishi tizimlarining adolatli faoliyati faqat texnik yondashuv emas, balki inson omilini chuqur hisobga olish orqali ta'minlanadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, adolatsizlik, ma'lumotlar, etik masalalar, algoritmik xolislik.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6I2Y2026N30>

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari inson faoliyatining turli jabhalariga chuqur kirib bormoqda. U nafaqat iqtisodiyot, tibbiyot, ta'lim, balki huquqiy tizim, davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotda ham muhim o'rin egallamoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalar asosidagi qarorlar adolat, xolislik va ishonchlilik masalalarida yangi savollarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, SI tizimlarining qaror qabul qilishdagi tarafkashlik (bias) muammosi inson huquqlari, ijtimoiy tenglik va huquqiy kafolatlar nuqtayi nazaridan dolzarb masalaga aylangan[1].

Sun'iy intellekt algoritmlari inson tomonidan ishlab chiqilgan ma'lumotlar to'plamiga asoslanadi. Shu bois, tarixiy yoki ijtimoiy jihatdan notekis bo'lgan ma'lumotlar tizim faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Natijada, SI qarorlari ayrim guruhlar foydasiga, boshqalarning esa zarariga bo'lishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, algoritmik adolatsizlik yoki "algorithmic bias" deb ataladi[2].

Bugungi kunda SI texnologiyalari ishga qabul qilish, kredit ajratish, tibbiy tashxis, sud qarorlarini prognozlash, migratsiya siyosati kabi sohalarida qo'llanilmoqda. Ushbu tizimlarda yuzaga kelgan kichik xato yoki tarafkashlik inson hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, SI qarorlaridagi adolatsizlik masalasini faqat texnik muammo sifatida emas, balki ijtimoiy, axloqiy va huquqiy masala sifatida ham ko'rib chiqish zarur[3].

Ushbu tadqiqotdan asosiy maqsadimiz – sun'iy intellekt tizimlaridagi algoritmik adolatsizlik sabablari, uning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini tahlil qilish hamda xalqaro va milliy darajada bu muammoni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdir.

Tadqiqotga metodologik asos sifatida tizimli tahlil, qiyosiy huquqshunoslik, induktiv va deduktiv yondashuvlar, shuningdek, xalqaro huquqiy tajribalarni o'rganish usullari qo'llanildi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining "AI Act" (2024), AQShning "AI Bill of Rights" (2022) va YuNESKoning "Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence" (2021) hujjatlari tahlil qilindi[4].

Sun'iy intellektidagi adolatsizlik masalasi ko'p fanlar kesishmasida – informatika, sotsiologiya, falsafa, huquq va etika doirasida o'rganiladi. Nazariy jihatdan "algorithmic bias" tushunchasi ilk bor 1980-yillarda sotsiologiyada "strukturaviy tarafkashlik" (structural bias) konsepsiyasi orqali izohlangan bo'lsa[6], hozirda u SI algoritmlarining o'qitilish jarayonida yuzaga keluvchi xolislikning buzilishi sifatida qaraladi.

Algoritmik adolatsizlik – bu SI tizimining ayrim ijtimoiy, demografik yoki madaniy guruh foydasiga, boshqalarning zarariga qarorlar qabul qilishi holatidir. Bu holatning sababi inson tomonidan yaratilgan ma'lumotlardagi tarixiy stereotiplar, tengsizlik va noxolisliklardir. Masalan, ishga qabul qilish tizimlarida SI modelining o'tmishdagi ma'lumotlarga tayanishi natijasida erkaklar foydasiga, ayollar zarariga qarorlar chiqarilishi kuzatilgan[5].

Nazariy nuqtayi nazardan, adolatli sun'iy intellekt g'oyasi "human-centered AI" (inson markazidagi SI) konsepsiyasiga asoslanadi. Bu konsepsiyaga ko'ra, SI texnologiyalari inson manfaatlarini ustuvor qo'yishi va inson qadr-qimmatiga zid bo'lmasligi lozim.

Sun'iy intellekt tizimlarida adolatsizlikning vujudga kelishi bir qator omillar ta'sirida yuz beradi va ularni shartli tarzda uch asosiy toifaga bo'lish mumkin:

- 1) ma'lumotlar bilan bog'liq sabablar,
- 2) algoritm ishlash mexanizmi bilan bog'liq sabablar,
- 3) inson omili bilan bog'liq sabablar.

1. Ma'lumotlar bazasining biryoqlamaliligi. SI tizimlarining asosiy manbasi – bu o'qituvchi ma'lumotlar (training data) to'plamidir. Agar ushbu ma'lumotlar ijtimoiy yoki etnik jihatdan notekis bo'lsa, model xulosalari ham adolatsiz bo'ladi. Masalan, MIT Media Lab tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda ayrim yuzni aniqlash tizimlari oq tanlilar uchun 99% aniqlikda ishlagan, biroq qora tanli ayollarni aniqlashda xatolik darajasi 34% gacha etgani aniqlangan[6].

Bu holat SI tizimlarining ijtimoiy neytrallikka ega emasligini ko'rsatadi. Demak, ma'lumotlar to'plami adolatli tanlanmasa, texnologik echim ham adolatli bo'la olmaydi. Shu bois, Yevropa Komissiyasi AI Act'da "high-risk systems" (yuqori xavfli tizimlar) uchun majburiy ma'lumotlar auditi o'tkazishni talab etgan[4].

2. Modelni o'qitishdagi nazorat etishmasligi. Sun'iy intellekt tizimlari o'qitish jarayonida turli bosqichlarda nazoratdan o'tmasa, yashirin biaslarni aniqlash imkonsiz bo'ladi. AQShda ishlab chiqilgan "COMPAS" tizimi (jinoyatni qayta sodir etish ehtimolini baholash uchun mo'ljallangan) qora tanlilarni oq tanlilarga qaraganda ikki baravar "xavfliroq" deb noto'g'ri baholagan[7]. Natijada, tizimning qarorlari sud amaliyotiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Bu holat SI qarorlarini huquqiy kontekstda ham tekshirish zarurligini ko'rsatadi. AI Bill of Rights hujjatida aynan shuning uchun "algorithmic discrimination protections" tamoyili mustahkamlab qo'yilgan.

3. Inson omili va axloqiy noxolislik. Sun'iy intellekt tizimlari inson tomonidan yaratilgan, inson tomonidan o'qitilgan va inson tomonidan nazorat qilinadigan tizimlardir. Agar ishlab chiquvchining o'zi madaniy yoki ijtimoiy tarafkashlikka ega bo'lsa, bu algoritmgaga ham singadi. Shuning uchun YuNESKOning 2021-yilgi tavsiyalarida SI muhandislarining "etik savodxonligi"ni oshirish davlat siyosati darajasida belgilangan[8].

Shuningdek, inson omilini butunlay chiqarib tashlash mumkin emas. "Human-in-the-loop" yondashuvi SI qarorlarini inson ekspertlari tomonidan doimiy tahlil qilib borishni nazarda tutadi. Bu yondashuv adolatsiz natijalarni erta bosqichda aniqlash va to'g'rilash imkonini beradi.

Algoritmik adolatsizlik muammosi texnik xatolikdan ko'ra kengroq – u jamiyatdagi mavjud tengsizliklarni chuqurlashtiruvchi omilga aylanadi. Chunki SI tizimlari qaror qabul qilish jarayonida inson hayotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Agar tizim noto'g'ri yoki tarafkash qaror chiqarsa, bu shaxsning ijtimoiy maqomi, ish o'rni, moliyaviy imkoniyatlari yoki sud himoyasi natijasiga ta'sir qilishi mumkin[9].

Birinchidan, ijtimoiy oqibatlar sifatida, SI texnologiyalariga bo'lgan ishonch pasayadi. Agar fuqarolar tizim qarorlarini adolatsiz deb bilsa, bu texnologik ishonch inqirozini keltirib chiqaradi. Masalan, 2018-yilda Amazon kompaniyasining ishga qabul qilish tizimi erkak nomzodlarga ustunlik bergani aniqlangach, loyiha bekor qilingan. Ushbu holat nafaqat kompaniya imijiga, balki SI sohasiga bo'lgan jamoatchilik ishonchiga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan[9].

Ikkinchidan, axloqiy oqibatlar – mas'uliyat muammosi bilan bog'liq. Sun'iy intellekt qarori natijasida kimgadir zarar etkazilgan taqdirda, javobgarlik kimga yuklanadi? – tizim yaratuvchigami, foydalanuvchigami yoki o'z-o'zidan ishlaydigan algoritmgami? Hozircha bu savolning yagona huquqiy echimi mavjud emas. Shu sababli, UNESCOning "Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence" hujjatida "human accountability" tamoyili alohida e'tirof etilgan, ya'ni har qanday SI qarori ortida inson mas'uliyati bo'lishi lozimligi qayd etilgan[8].

Uchinchidan, huquqiy oqibatlar. SI tizimlari noto'g'ri qaror chiqarganda inson huquqlari buzilishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Masalan, "COMPAS" tizimi AQShda qora tanli sudlanuvchilarni oq tanlilarga qaraganda ko'proq xavfli deb baholab, ayrim hollarda noto'g'ri sud qarorlariga sabab bo'lgan. Bu esa "adolatli sudlov" tamoyilining buzilishiga olib kelgan. Shu bois, AI Bill of Rights (2022) hujjatida "algorithmic discrimination protections" moddasida davlatlardan diskriminatsiyani kamaytirish uchun algoritmik audit mexanizmlarini joriy etish talab etilgan.

Yevropa Ittifoqi sun'iy intellekt sohasida birinchi marta majburiy normativ hujjat – "Artificial Intelligence Act"ni 2024-yilda qabul qildi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi – SI tizimlarini xavf darajasi bo'yicha tasniflash (minimal, cheklangan, yuqori xavfli, taqiqlangan) hamda ularning ishlashida adolat va shaffoflikni ta'minlashdir.

AI Act'ning 10-moddasiga ko'ra, yuqori xavfli SI tizimlari ishlab chiqish jarayonida ma'lumotlar sifati, audit kuzatuv, inson nazorati va xolislik tahlili majburiy hisoblanadi. Shuningdek, 14-modda "human oversight" tamoyilini joriy etadi – bu SI qarorlarining inson tomonidan tekshirilishini kafolatlaydi[4].

Yevropa Komissiyasi ushbu qonun orqali "algorithmic fairness" tushunchasini huquqiy kategoriya sifatida mustahkamladi. Shu tariqa, adolatli SI nafaqat texnik masala, balki huquqiy majburiyat sifatida belgilandi.

AQSh Oq uyi 2022-yilda "Blueprint for an AI Bill of Rights" tashabbusini e'lon qildi. Ushbu hujjat insonlarning raqamli muhitdagi asosiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, besh asosiy prinsipni belgilaydi:

1. Xavfsiz va samarali ishlaydigan tizimlar;
2. Algoritmik kamsitishning oldini olishga qaratilgan himoya mexanizmlari;
3. Ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash tamoyillari;
4. Jarayonlar haqida foydalanuvchini xabardor qilish va qarorlarning izohlanishi;
5. Zarurat tug'ilganda inson ishtirokiga murojaat qilish va muqobil yondashuvlar[11].

Mazkur tamoyillar SI qarorlarida diskriminatsiyani kamaytirish, ma'lumotlarni himoya qilish va inson nazoratini saqlab qolish uchun xalqaro standartga aylandi. Shu bilan birga, AI Bill of Rights hujjati huquqiy majburiy kuchga ega emas, biroq davlat idoralari va kompaniyalar uchun etalon sifatida xizmat qiladi.

2021-yil 23-noyabrda qabul qilingan mazkur tavsiya hujjatida 193 davlat (jumladan O'zbekiston) SI etik me'yorlarini ishlab chiqish bo'yicha majburiyat oldi. Hujjatda SI tizimlarida adolat, inson huquqlarini himoya qilish, shaffoflik va mas'uliyat tamoyillari asosiy yo'nalish sifatida belgilangan.

UNESCOning yondashuvida "inclusion" (inklyuzivlik) va "cultural diversity" (madaniy xilma-xillikni hurmat qilish) tamoyillari alohida o'rin egallaydi. Bunda SI texnologiyalarini turli madaniy va til muhitlarida moslashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Ushbu prinsiplar algoritmik adolatsizlikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida sun'iy intellekt texnologiyalarini huquqiy tartibga solish so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Prezidentning 2024-yil 14-oktabrda qabul qilingan PQ-358-son qaroriga muvofiq "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi" tasdiqlandi. Ushbu hujjatda "xolis, ishonchli va inson manfaatlariga xizmat qiluvchi sun'iy intellekt"ni yaratish maqsadi belgilangan[12].

Mazkur konsepsiya doirasida quyidagi yondashuvlar muhim o'rin tutadi:

- SI tizimlarining etik nazoratini kuchaytirish uchun Etika qo'mitalarini tashkil etish;

- yuqori xavfli SI tizimlari uchun majburiy audit va sertifikatlash mexanizmlarini joriy etish;
- inson markazidagi texnologiyalar tamoyilini milliy standart sifatida qabul qilish;
- SI sohasida ishlovchi mutaxassislarning etik savodxonligini oshirish.

Shu bilan birga, 2019-yilda qabul qilingan ‘Shaxsga doir ma’lumotlar to’g’risida’gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni ham SI faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Bu qonunlar ma’lumotlar xavfsizligi va shaffoflik prinsiplarini mustahkamlaydi. Ammo amaliyotda SI qarorlari ustidan shikoyat berish tartibi yoki javobgarlik mexanizmi hali aniq belgilanmagan.

Shu bois, O‘zbekiston uchun quyidagi takliflar dolzarb:

1. AI Act modelidan kelib chiqib, milliy “Sun’iy intellekt to’g’risida” qonun qabul qilish;
2. Sun’iy intellekt tizimlari uchun audit va javobgarlik tartibini qonun darajasida belgilash;
3. SI tizimlarida adolat tamoyillarini ta’minlovchi mustaqil etik nazorat kengashini tashkil etish.

Sun’iy intellekt qarorlarida adolatsizlik masalasi zamonaviy texnologiyalar evolyutsiyasining eng murakkab muammolaridan biridir. Tahlillar shuni ko’rsatadiki, SI tizimlari inson tomonidan yaratilgan tarixiy ma’lumotlar va stereotiplarga asoslanganligi sababli, ular ijtimoiy tengsizlikni aks ettiradi.

Shu sababli, adolatli SI tizimlarini shakllantirish uch yo’nalishda olib borilishi lozim:

1. Texnik yondashuvlar – ma’lumotlarni tozalash, fairness-algoritmlar joriy etish va inson nazorati mexanizmlarini kuchaytirish.
2. Axloqiy va huquqiy yondashuvlar – etik qo’mitalar tashkil etish, javobgarlik tamoyillarini belgilash, xalqaro hujjatlarga muvofiq normativ asoslarni yaratish.
3. Inson omiliga asoslangan yondashuv – SI sohasida ishlovchi mutaxassislar uchun etik savodxonlikni oshirish, gender va madaniy xilma-xillikni e’tiborga olish.

Natijada, sun’iy intellekt tizimlarining adolatli ishlashi nafaqat texnik echimlar, balki inson qadriyati va huquqiy mas’uliyat uyg’unligiga bog‘liqdir.

Xulosa qilib aytganda, adolatli sun’iy intellekt tizimlarini yaratish faqat texnik taraqqiyotga emas, balki insoniyatning etik etukligiga ham bog‘liqdir. Faqat inson markazli, xolis va mas’uliyatli yondashuv orqaligina sun’iy intellekt jamiyat uchun haqiqiy foyda keltiruvchi vositaga aylanishi mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Crawford K. (2021). Atlas of AI: Power, Politics, and the Planetary Costs of Artificial Intelligence. Yale University Press.
2. Russell S., Norvig P. (2021). Artificial Intelligence: A Modern Approach. Pearson Education.
3. The Conversation (2024). “How to prevent AI bias: Lessons from recent AI failures.” Available at: <https://theconversation.com>
4. European Commission (2024). Artificial Intelligence Act (EU Regulation 2024/1688). Brussels: Official Journal of the European Union.
5. Binns R. (2018). “Fairness in machine learning: Lessons from political philosophy.” Proceedings of the FAT Conference. New York: ACM.
6. Giddens A. (1984). The Constitution of Society: Outline of the Theory of Structuration. University of California Press.
7. ProPublica (2016). “Machine Bias: Risk Assessments in Criminal Sentencing.” Available at: <https://www.propublica.org>

8. UNESCO (2021). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO Press.
9. Winfield A. F. T., Jirotko M. (2018). "Ethical governance is essential to building trust in robotics and AI." Philosophical Transactions of the Royal Society A.
10. Reuters (2018). "Amazon scraps AI recruiting tool that showed bias against women." Reuters Technology News.
11. OECD (2022). Recommendation on AI Governance. Paris: OECD Publishing.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PQ-358-son qarori.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (6) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).